

RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARIX FANINI  
O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI

ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ  
ЦИФРОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ.

INNOVATIVE MODELS OF TEACHING HISTORY BASED ON DIGITAL  
PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

*Soipova Orzugul Inomjon qizi Qo‘qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti Tarix  
yo‘nalishi 202-guruh 2- bosqich talabasi.*

*e-mail : [orzugulsoipova72@gmail.com](mailto:orzugulsoipova72@gmail.com)*

*Tel : +998933848115*

*“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak  
ma‘naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z  
zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog‘liq[1].”*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda innovatsion o‘qitish modellari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarix ta‘limi mazmuni va metodikasini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Tadqiqotda raqamli ta‘lim muhiti, multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va interaktiv platformalarning tarix fanini o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari ochib beriladi.

Shuningdek, innovatsion modellar orqali talabalarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari tarix fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Аннотация**

В данной статье анализируются теоретические и методологические основы использования цифровых педагогических технологий в преподавании истории и инновационных моделей обучения. Быстрое развитие информационно-коммуникационных технологий в современном образовательном процессе требует организации содержания и методологии исторического образования на основе новых подходов. Исследование выявляет дидактические возможности цифровых образовательных сред, мультимедийных инструментов, виртуальных экскурсий и интерактивных платформ в преподавании истории.

Также освещаются вопросы формирования исторического мышления, критического мышления, самостоятельного анализа и цифровых компетенций у учащихся посредством инновационных моделей. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по эффективной организации исторического образования на основе современных педагогических технологий.

**Abstract**

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the use of digital pedagogical technologies in teaching history and innovative teaching models. The rapid development of information and communication technologies in the modern educational process requires the organization of the content and methodology of history education based on new approaches. The study reveals the didactic possibilities of digital educational environments, multimedia tools, virtual excursions and interactive platforms in teaching history.

Also, the issues of forming historical thinking, critical thinking, independent analysis and digital competencies in students through innovative models are highlighted. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations for the effective organization of history education based on modern pedagogical technologies.

**Kalit soʻzlar:** Raqamli pedagogika, innovatsion model, tarix taʼlimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, multimedia vositalari, raqamli kompetensiya, tarixiy tafakkur.

**Ключевые слова:** цифровая педагогика, инновационная модель, историческое образование, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы, мультимедийные инструменты, цифровая компетентность, историческое мышление.

**Keywords:** Digital pedagogy, innovative model, history education, information and communication technologies, interactive methods, multimedia tools, digital competence, historical thinking.

### Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari taʼlim tizimiga tub oʻzgarishlar olib kirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida taʼlim mazmuni, shakli va metodlarida yangicha yondashuvlar yuzaga kelmoqda. Xususan, tarix fanini oʻqitishda anʼanaviy usullar bilan bir qatorda raqamli pedagogik texnologiyalarni qoʻllash zarurati tobora ortib bormoqda.

Tarix fani nafaqat fakt va sanalarni oʻrgatish, balki tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bogʻliqligini aniqlash, tarixiy tafakkurni shakllantirish kabi murakkab intellektual jarayonlarni talab etadi. Shu bois, mazkur fanni samarali oʻqitish uchun interaktiv va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan raqamli taʼlim muhiti muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli pedagogik texnologiyalar — multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar, interaktiv xaritalar, onlayn platformalar — taʼlim jarayonini vizual, dinamik va talabaga yoʻnaltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa talabalarning faolligini oshiradi, mustaqil izlanish koʻnikmalarini rivojlantiradi hamda tarixiy bilimlarni chuqurroq oʻzlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy taʼlim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Tarix fanini raqamli texnologiyalar asosida oʻqitish esa nafaqat taʼlim sifatini oshiradi, balki talabalarning XXI asr koʻnikmalarini egallashiga zamin yaratadi. Shu bois tarix taʼlimida innovatsion modellarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliy masalalari N.A. Muslimov, M. Usmonboeva va D.M. Mirsoliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan. Mualliflar innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayoniga joriy etish orqali talabalarda pedagogik kompetentlikni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat masalalari H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova va M. Eshbo'tayev tadqiqotlarida ham muhim o'rin egallaydi. Mualliflar ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab berganlar.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari N. Saidahmedovning ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan bo'lib, u yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari O'. Tolipov va M. Usmonboyeva tadqiqotlarida ham tahlil qilingan. Mualliflar pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligini ko'rsatib berganlar.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi masalalari E. Shodmonov va A. Raximov tomonidan o'rganilib, ilmiy izlanishlarni tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, modellashtirish va simulyatsiya usullarining nazariy asoslari A.M. Law va W.D. Kelton tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonlarini modellashtirishda innovatsion yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, M.D. Omarov o'z tadqiqotlarida kompyuterli imitatsion modellashtirish usullarining ilmiy asoslarini yoritib, turli sohalarda modellashtirish usullaridan foydalanish samaradorligini ko'rsatib bergan.

Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarda insitutning bacha fakultet va yo'nalishlari, uning yutuqlari to'liq tahlil etilmagan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi.

#### **Natija va muhokama**

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metrlarini qo'llash o'rnatish jarayonida yuqori samaradorlikka olib keladi. Ta'lim usullarini tanlashda bir darsning didaktik ishlatishdan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Ilm-fan, texnologiya, ishlab chiqarish va texnologiya sohaslarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jhamiyatning eng muhim xarakterli jhati uning barcha sohaslaridada globalashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globalashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tadbiq qilishni takozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'lalilar. Shunday ekan, oliy talim muassasalar (OTM)ida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir[2].

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini, ularning ta'lim sifatini oshirish va axborot hamda kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy

ta'limni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko'p hollarda «ta'limning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi «AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» iborasi bilan aralashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda, asosan, an'anaviy pedagogik texnologiyadan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so'nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi. Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak. Mavjud holat, axborotlar oqimining negizlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning tafakkuri va fikr yuritishi jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmamikan? Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muhitiga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz lozim. Shu o'rinda biz Axborot Texnologiyalarini ta'lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e'tirof etishni xohlardik. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan subyektivizmni cheklaydi[3].

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda dasturlar va ma'ruza matnlarini elektron disketlarga ko'chirish, ular bilan har bir talabani ta'minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek. O'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi. Xullas, pedagogik texnologiya - o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchi yoki talabalarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o'z navbatida, ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir[4].

Tadqiqot jarayonida tarix fanini o'qitishda raqamli pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion modellarni qo'llashning didaktik samaradorligi tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar (multimedia taqdimotlar, interaktiv xaritalar, onlayn platformalar) asosida tashkil etilgan darslar talabalarning bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Xususan:

talabalarning mavzu bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi;  
tarixiy jarayonlarni tahlil qilish va sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash darajasi oshadi;  
axborotni izlash, saralash va tahlil qilish kompetensiyalari shakllanadi;  
dars jarayonida ishtirok etish faolligi va motivatsiya ko'rsatkichlari yuqorilaydi.

Raqamli ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning o'zlashtirish darajasi an'anaviy usulda o'tilgan darslarga nisbatan yuqori natija ko'rsatadi. Bu esa innovatsion modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar zamonaviy pedagogika nazariyasi bilan uyg'unlikda tahlil qilindi. Raqamli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni

konstruktivistik yondashuv tamoyillariga mos keladi. Ya'ni talaba bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki interaktiv vositalar orqali mustaqil ravishda shakllantiradi.

Tarix fanini o'qitishda innovatsion modellar quyidagi didaktik afzalliklarni namoyon etdi:

- Vizual va interaktivlik darajasining oshishi – tarixiy voqealar, hududiy o'zgarishlar va jarayonlar aniq va obrazli tasvirlanadi.
- Tahliliy tafakkurning rivojlanishi – interaktiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlar tarixiy tafakkurni chuqurlashtiradi.
- Individual yondashuv imkoniyati – raqamli platformalar har bir talabaga o'z sur'atida o'rganish imkonini berdi.
- Raqamli kompetensiyalarning shakllanishi – XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi: texnik ta'minot yetarli emasligi, internet tezligining pastligi hamda pedagoglarning raqamli kompetensiya darajasi yetarli emasligi kabi omillar jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Shunday bo'lsa-da, umumiy tahlil natijalari raqamli pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion modellar tarix fanini o'qitish sifatini oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.

Demak, tarix fanini raqamli pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish talabalarning tarixiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Innovatsion modellar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o'zlashtirish darajasi 82% ni tashkil etdi, an'anaviy usulda esa bu ko'rsatkich 68% bo'ldi. Shuningdek, darsdagi faollik ko'rsatkichi raqamli modelda 85% ga yetgan bo'lsa, an'anaviy usulda 65% darajasida qayd etildi.

Bu natijalar innovatsion modelning didaktik samaradorligini tasdiqlaydi hamda tarix fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishini ko'rsatadi.

Darsdagi faollik darajasi (%)



Yuqoridagi tahlil qilingan tajribalar qay darajada dolzarb ekanligi ko'zga tashlanadi. Pedagogik texnologiyalarni dasturiy ta'limda qo'llash yuksak salohiyatli va boy tajribalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashda qo'l keladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim-fan-amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir[5].

Shu o'rinda modellashtirish, kompyuter texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanish va ularni amaliyotda qo'llay olish kabi bir qancha o'rganilishi lozim bo'lgan dasturiy tizimlar mavjud.

Modellashtirish ilmiy yondashuv sifatida, ilmiy bilishning eng muhim usullaridan biri bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan ob'ektning modeli (odatiy tasviri) yaratiladi. An'anaviy ma'noda model bir tuzilmani (o'rganilgan boshqasiga) xaritalash natijasidir. Har qanday model ma'lum farazlar ostida quriladi va o'rganiladi. Bu odatda matematik usullar yordamida amalga oshiriladi[6].

Kompyuter imitatsion modellar - bu kompyuterga real hayot tizimlari va jarayonlarini tasvirlash va taqlid qilish imkonini beradigan texnologiyalar. Ular asosan dasturiy ta'minot shaklida bo'lib, talabalarga murakkab tizim va jarayonlarni tushunish va boshqarish imkonini beradi. Imitatsion modellardan foydalanib o'qitish orqali talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu texnologiya ularning xatolarini qayta ko'rib chiqish va tuzatish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi[7].

Omarov M.D. ilmiy tadqiqot ishida kompyuterli imitatsion modellashtirish metodologiya sifatida ko'plab ilmiy fanlarda muhim sintezlovchi rol o'ynaydi, fanning turli sohaslariga yangi qo'shimcha imkoniyatlar beradi, intuitive aqliy-vizual "modellashtirish"ni cheklash va ratsional usullarni qo'llashni kengaytirishga yordam beradi, zamonaviy intellektual tahlil esa turli xil ko'p o'lchovli ma'lumotlarning ayrim qismlariga xos bo'lgan namunalarni avtomatik ravishda qidirish uchun ma'lumotni qayta ishlaydi, gipotezalarni tavsiflash va nostandart uslublarni aniqlashning murakkabligini kompyuterga o'tkazadi, deb aytgan[8].

#### Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi (2017-yil 7-fevral, PF – 4947-son Farmon)

1. N.A.Muslimov, M. Usmonboeva, D. M. Mirsolieva. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" modullar bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2017
2. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, M.Eshbo'tayev. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2009
3. N.Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot) — Toshkent, Moliya, 2003
4. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari." – Toshkent, Fan, 2006
5. E. Shodmonov, A. Raximov. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi." – Toshkent, Fan, 2014
6. Law A.M., Kelton W.D. Simulation Modeling and Analysis. – New York: McGraw-Hill, 2000
7. M.D.Omarov. "Kompyuterli imitatsion modellashtirish asoslari." – Toshkent, Fan, 2012